

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11397793>

### **Abdimo'minova Dildora**

*TerDU talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada o'zining "Navoiy" romani kabi buyuk badiiy asarlari, qissalari, tarjimalari bilan kitobxonlar e'tiborini qozonib kelayotgan adib Oybekning hayot yo'li, asarlari haqida ma'lumot berilgan. Umarali Normatovning "Adib huzurida 19 daqiqa", Naim Karimovning "Ikki darg'a", Ozod Sharafiddinovning "Millatni uyg'otgan adib" kabi maqolalari orqali Oybekning faoliyati ochib berilgan. Maqolada faqatgina adabiyotchilar emas balki turmush o'rtog'i Zarifa Saidnosirova qalamiga mansub "Oybegim mening" asari ham Oybek shaxsini ochishda yordam bergen.*

**Kalit so'zlar:** *darg'a, zot, xalq, adib, tarjima, adabiyotshunos, zaruriy minimum, jarayon, tadqiqot*

Inson zoti azal-azaldan faqatgina moddiy emas balki ma'naviy jihatdan boy va kamko'stsiz bo'llishga harakat qilib keladi. Moddiy deganda pul, boylik, dang'illama hovlilarda istiqomat qilish tushunilsa, ma'naviy deganda uning ongi, tafakkurining boyligi, fikrlash doirasining kengligi nazarda tutiladi. Moddiy jihatdan boyish kishidan mehnat, layoqatni talab qilsa, ma'naviy boyish uchun badiiy asarlar, she'riyat durdonalarining jilvalarini o'qish, anglash zarurati tug'iladi. O'zbekiston xalqi tomonidan yaxshilik va yomonlik, o'z yerlarining sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilgan qo'rmas pahlavonlar, shafqatsiz va shu bilan birga dono hukmdorlar haqida rang-barang afsonalar yaratilgan va og'izdan-og'izga ko'chib borgan. Alpomish, Siyovush va Afrosiyob haqidagi mashhur afsonalar va xalq og'zaki ijodining yana ko'plab boshqa yorqin namunalari adabiyotimiz uchun zamin yaratdi. O'tgan asrning boshlarida esa badiiy namunalarning ham hajman, ham mazmunan o'sib borishiga Cho'Ipon, Fitrat, Oybek-u Qodiriy kabi yetuk adabiyot namoyondalari o'z hissalarini qo'shishdi. Pushkinning "Yevgeniy Onegin" asarini mahorat ila o'bek tiliga tarjima qilgan buyuk adabiyotshunos Oybek ko'plab insonlarning hurmatini, e'tiborini qozona olgan adabiyotchidir. Uning asl ismi Musa Toshmuhammad o'g'li bo'lib, 1905-yil 10-yanvarda Toshkent shahrida tavallud topgan. Oybek uning taxallusi, munaqqid Umarali Normatov o'zining "Adib huzurida 19 daqiqa" nomli maqolasida turkiyalik Shohid Eson ismli olim "...iste'dodli yoshlarga qadim turkiy shavkatli siymolar nomlarini, chunonchi, Muso Toshmuhammad o'g'liga "Oybek", Usmonbek Dolimovga "Subutoy", Zuhuriddin Salohiddinovga "Oltoy" ismlarini adabiy taxallus sifatida tavsiya etgan, ular ham o'z navbatida bu tabarruk ismlarni mammuniyat bilan qabul qilganlar" deya aytib o'tgan edi. Oybek dastlab Oqmasjid mahallasidagi eski mакtabda, so'ng Munavvarqori Abdurashidxonov tashkil etgan "Namuna" maktabida boshlang'ich ma'lumotni oladi. Adib

Fitratning "Adabiyot qoidalari" asariga yozgan taqrizi bilan adabiy-tanqidiy xarakterda chiqqan. U o'z taqrizida ushbu qo'llanmaning zarurligi, ijobiy ahamiyati haqida to'xtalib, kitobning kamchiligi haqida so'z yuritadi. Xususan, kitobda "marksistcha ijtimoiy tahlil" ning kamchiligi haqida so'z yuritgan. Oybek ijodi haqida so'z borar ekan, asosiy sahifani navoiyshunoslik tashkil etishini aytish joizdir. "Navoiy dunyoqarashi masalasiga doir", "Navoiyning adabiy merosi masalasiga doir", "Navoiy " Majolis un-nafois" asari haqida" kabi maqolalari bugungi kunga kelib ham o'z qimmatini yo'qotmadi. Buyuk mutaffakirimiz ijodi bo'yicha qilgan ishlari faqat shu bilan cheklanmasdan, 1967-yilda "Navoiy gulshani", A.Deych bilan hamkorlikda yozilgan "Mir Alisher Navoiy" tadqiqotlarida tasavvuf adabiyotiga to'g'ri munosabat bildirdi. "So'nggi yillarda o'zbek poeziysi", "Sotsiolistik lirika uchun", "O'zbek poeziyasida til" kabi asarlarida esa lirikaning muammolariga e'tiborini qaratgan.

Oybekni faqatgina yozuvchi shoир sifatida bilishimiz biroz g'alatidir. Chunki adibimiz tarjimon sifatida ham faoliyat ko'rsatgan. U Pushkin, Anatol Frans, Gorkiyarning asarlaridan parchalar tarjima qilib, Pushkinning "Yevgeniy Onegin" asarini qilgan tarjimasi el ichida mashhur bo'lgan. O'zbek munaqqidi Naim Karimov o'zining "Ikki darg'a" maqolasida aynan bu voqeа haqida bayon etadi. Maqola nomiga muvofiq tanqidchi Otajon Hoshim hamda Oybek haqida, ularning faoliyati haqida so'z yuritadi. Adiblarning ikkisi ham Toshkent farzandi bo'lib, birga o'qigan, biri jumhuriyat Fanlar Qo'mitasi rahbari (Otajon Hoshim) biri oddiy ilmiy rahbar (Oybek) bo'lgan. Pushkin vafotining 100yilligi munosabati bilan 1936-yilda asarini tarjima qilish Oybekning mekiga tushadi. Bunday vazifani unga yuklashda albatta Otajon Hoshimning xizmati borligini unutmaslik kerak. Asarni tarjima qilish jarayonida Oybekda 2ta savol tug'iladi. Biri asarni erkin tarjima qilish kerakmi, yoki so'zma so'z ? Ikkinchisi esa qaysi vazn tarjima uchun ma'qul bo'ladi. Adib bu jarayonda ustozи bo'lmish Abdulhamid Cho'lpondan yordam so'raydi. Cho'lpon asarni 11 hijoli barmoq, 9 hijoli yambda bir baytini tarjima qilib beradi. Asarni tarjimasi yakunlangach Oybek 2 haftada qog'ozga tushirishni mo'ljallagan edi, biroq bu ish 1 yarim oyni talab etadi. Sababi tarjimani asli bilan solishtirilib, xato va kamchiliklarini ko'rар, Otajon Hoshim ham tahrirlash paytida qo'pol joylarini ko'rsatar edi. Oybek tarjima qilish jarayonida "zaruriy minimum" deb atalgan yo'lni tanlaydi, unga ko'ra chet tildan kirgan eng muhim so'z, ism va atamalarni o'z holida saqlab qoldirar edi. Tarjimani Otajon Hoshim tahrirlardi, lekin buyuk adabiyotshunosimiz Oybek doim uning aytganlariga quloq solmas edi:

Jarkop, blan manje orasidayoq

Keltirib qo'yishar tsimlyanskiyi...

"Ammo Otajon Hoshim bu satrlardagi o'zbek tiliga yot atamalar munosabati bilan bunday yozadi: «Bunda blan-manje so'zini saqlashga to'g'ri keladi, lekin tsimlyanskiy so'zini tushunishni shu joyning o'zida osonlashtirish mumkin edi. Buning uchun tsimlyanskiy bilan birga sharob so'zini ustalik bilan ishlatib yuborish yetarli edi». Bu, ehtimol, nazariy jihatdan to'g'ri mulohazani e'tiborga olish uchun tarjimon shu satrlardagi boshqa biror so'z, biror mazmunni qurban qilishga majbur edi. Shuning uchun u muharrirning hamma

mulohazalariga ham qulq sola bermagan. Agar u Otajon Hoshim bilan fikrdosh bo'lganida, u o'z tarjimasida ulvny, bokira, vosila, g'addor, ro'yo, maxmura, kadar singari «omma tiliga va hozirgi adabiy tilimizga kirmagan so'zlar»dan istifoda etmagan va tarjima tilini xiyla kambag'allashtirgan bo'lardi" ("Ikki darg'a" maqolasidan)

O'zbek munaqqidi Ozod Sharafiddinov ham Oybek haqida ko'plab maqolalar yozdi lekin u adabiyotshunos sifatida yolchitib yozolmadim, uning asarlaridagi bitmas-tuganmas boylikni ko'ngildagigek qilib kitobxonlarga yetkazolmadim deya o'zini ayblaydi va hayotidagi armoni deb hisoblaydi. Armonining sababi esa Naim Karimov, Baxtiyor Nazarov, Ibrohim G'ofuruv kabi oybekshunoslар bilan bahlashishdan qo'rqishda hamda Oybekning ulug'vorligidan seskanganlikdadir deb e'tirof etadi o'zining "Millatni uyg'otgan adib" nomli maqolasida. Oybekning "Navoiy" hamda "Qutlig' qon" romanlari ham XXI asrda yashashda davom etmoqda. Romanlarning realistik asar ekanligi, personajlar mukammal ishlanganligi sabab o'quvchi xotirasida bir umrga muhrlanib qoladi. Oybek umrinning dastlabki 45 yili ham so'ngni 16 yili ham jismoniy va ma'naviy azoblarga duchor bo'ldi. Ozod Sharafiddinov maqolasida Oybekning naqadar oliyanob shaxs ekanligini voqealar asosida ko'rsatgan. Uning "Navoiy" romani yozilgandan so'ng 3-4 yil el ardog'ida bo'lib ko'klarga ko'tarilgan, biroq Botir Fayziyev romandagi Navoiy hamda Binoiy suhbatlarini tojik xalqini kamsitish, millatchilikka yo'l ochgan deb tuhmatlar ostida qoldirgan. Oybek bu kabi bo'htonlarga dosh berolmay, og'ir kasallikka uchrab xatto gapdan ham qoldi. "Adib huzurida 19 daqiqa" maqolasida ham uning 60 yoshida duduqlanib zo'rg'a so'zlarni aytganligi berilgan edi. Demak adibimiz bu xastaligiga ham ijodi orqali yo'liqqa ekan. O'sha kezlar unga yelkadosh bo'lib ayoli Zarifo opa turgan. Oradan yillar o'tib Fayziyevning keltirgan dalillari, fikrlari noo'rin deb topildi va Oybek va uning romani oqlandi. Botir Fayziyev qilgan ishining xatoligini tushunib dissertatsiyasini Oybek ijodiga bag'ishladi, lekin adabiyotchilarning hech biri uning ishiga taqriz yozib bermadi. Ular Fayziyevni kechirishmagan edi, lekin adibimiz Oybek uni yaxshi muomala bilan qabul qilib, hech narsa bo'limgandek qarshi oldi, dissertatsiyasiga taqriz yozib berib ulkan zafarlar tiladi. Bunaqa oliyanoblik har kimning ham qo'lidan kelavermaydi, biroq o'zbekning haqiqiy jonkuyar adabiyotchisi bu ishni uddaladi.

Har bir muvaffaqiyatli erkak ortidan buyuk ayol turadi deganlaridek, Oybekning ko'plab yutuqlarga erishishi, el orasida mashhur bo'lishiga sabab ayoli Zarifa Saidnosirovaning ishonchi, daldasi, qo'llab-quvvatlashi natijasida edi. Zarifa Saidnosirova O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, birinchi rassom ayol, ziyoli va olima bo'lgan. Zarifa Saidnosirova kimyogar bo'lsada, turmush o'rtog'iga bag'ishlab nafaqat biografik, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega, haqiqiy adabiyotshunos yarata oladigan jonli va yorqin tasvirlarga ega muhabbat qissasi bo'l mish «Oybegim mening» asarini yaratdi. Kitobni o'qigan har bir o'quvchi qalbida Oybekdek ulug' adib va ulug' insonga nisbatan hurmat va muhabbat tuyg'ulari paydo bo'ladi. Kitobda, Oybekdan tashqari, yana bir assosiy qahramon bor. Bu, butun hayotini Oybekka bag'ishlagan, uning mashaqqatli qismatini yengillashtirishga intilgan, unga munosib yor bo'lgan Zarifa opaning o'zidir. Asarda Oybek

va Zarifalar qanchalik qiyin yo'llarni bosib o'tganiga va o'z davrinig juda kuchli adiblari bo'Iganligi, o'sha davrning kuchli adiblari bilan birga do'stona munosabatda bo'Iganligini guvohi bo'lamiz. Va shunga qaramasdan yaxshilar bor ekan dunyoda ularni ko'rolmaydigan, ularga yovuz niyat ila boqadiganlar ham yo'q emas albatta. Oybek kasal bo'lib yotib qolsada yozishda davom etadi. Eng achinarlisi shundaki kechagina uyiga kelib kamchiliklarimni ko'rib bering deb yurgan shogirdlari uning oyog'iga bolta urishga harakat qilishadi. Oybekninng asarlari juda ko'p tillarga tarjima qilinadi. Oybek kasal bo'lib yotar ekan xotiniga tugallanmay qolgan asarlarini aytib turadi va shu tarzda yakunlaydi. Oybek hamda Zarifa Saidnosirova faqatgina fan arboblari emas balki mehribon ota-onadir. Ularning 3 nafar farzandi bo'lib o'g'li Omon tarixchi, qizi Gulrang sharqshunos, kenja o'g'li Suyunbek esa kimyogar bo'lishida albatta jonkuyar ota-onaning mehnati kattadir,

Demak, Oybek shunchaki asarlar yaratmagan, shon-shuhrat uchun ijod qilmagan. U haqiqiy, viqorli adabiyotchi bo'Igan. Oradan 1asrdan ko'p vaqt o'tgan bo'lsada, hali ham kitobxonlar tilidan, e'tiboridan chetda qolmagan. Adibimiz Oybek o'zidan o'chmas iz qoldira oldi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. N. Karimov - "Ikki darg'a" (maqola). "Guliston jurnali": 1990-yil 9-soni
2. U. Normatov - "Adib huzurida 19 daqiqa" (maqola). "Jahon adabiyoti" jurnali: 2005-yil 5-soni
3. O.Sharafiddinov – "Millatni uyg'otgan adib" (maqola). "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi: 2004-yil 44-soni
4. Z. Saidnosirova – "Oybegim mening". "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2005
5. D. Abdimo'minova – "O'zbek tanqidchi olimlarining biografik metoddan foydalanishlari xususida". Vol. 41 No. 3 (2024): ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ | Выпуск журнала № 41 | Часть-3 <https://www.newjournal.org/index.php/01/issue/view/338>
6. Махмудов, Р. М., & Акбаров, Л. И. (2021). ҲАРБИЙ ИНТИЗОМ ПСИХОЛОГИЯСИ. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 4(2).
7. Muratovich, M. R. (2023). Rajaboevich IA HARBIY XIZMATCHILARNING KASBIY ONGINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA UZLUKSIZ JARAYON SIFATIDA. PEDAGOOGS jurnali, 36(1), 32-34.
8. Махмудов, Р. М. (2010). Шахс ҳуқуқий ижтимоийлашувининг назарияси ва амалиёти. Ўзбекистон Респ. Ички ишлар вазирлиги Акад. Тошкент: Фан, 210.